

## YOSHLAR O'RTASIDA VIRTUAL JINOYATLAR

**Do'stmurodov Ahmadjon Ikrom o'g'li**

*Guliston Davlat Universiteti*

*Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yoshlar o'rtasidagi virtual jinoyatlar haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Virtual, globallashuv, jinoyat, yoshlar, internet.*

**Annotation:** *This article provides information about virtual erimes among young people.*

**Keywords:** *Virtual, globalization, crime, young people, internet.*

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о виртуальных преступлениях среди молодежи.

**Ключевые слова:** глобализация, преступление, молодежь, интернет.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan davrda, ayniqsa, texnika va texnologiyalarga juda katta ta'sir qilmoqda. Chunki XXI asrni "Globallashuv" asri desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu rivojlanish o'ziga xos ijobiy va salbiy taraflarini ko'rsatmasdan qolmayapti. Bugungi kunda har qanday yangilikni "virtual" olamdan bemalol topib olish mumkin. Bu olamda vaqtни behudaga sarflayotgan yoshlarimiz oramizda topiladi. Lekin tanganing 2 tarafi bo'lganidek "virtual" olamdan to'g'ri maqsadlarda foydalanayotgan, kelajagiga befarq bo'Imagan yoshlarimiz anchagina. Online olimpiada, online darslarda faol qatnashib o'z ustida ishlayotganlar oramizda ko'pchilikni tashkil qiladi.

Lekin "yoshlar o'rtasidagi virtual jinoyatlar o'zi nima?" degan savolga to'xtalsak. Hozirgi kunda ko'payib borayotgan jinoyatlardan biridir. Bular sirasiga "bank kartalardan noqonuniy pul yechish", "noqonuniy internet do'konlar" kiradi. Hozirgi kunda ko'pchilik fuqarolarimiz internetda tarqalayotgan har xil online kreditlar, norasmiy kreditlar, norasmiy kanallardagi "yolg'on axborotlarga" ishonib qolmoqda. Xalqimiz orasida yaxshi gap bor: "Tekin yemak qopqonda bo'ladi" deb bejiz aytilmagan. Shunday ekan har birimiz har bir ishni o'ylab qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Statistika ma'lumotlariga qaraganda, 2018-yilda yoshlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlarning 331 ta jinoyatning 211 tasi kollej, 120 tasi maktab o'quvchilari tomonidan amalga oshirilgan. Bu ko'rsatkich avvalgi yillarga niabatan yoshlar





o'rtasidagi jinoyatlar soni 37.4 % , jumladan, kollej o'quvchilari tomonidan 17.3% ga 58 taga kamaydi.

2018-yilning birinchi yarim yilligida yoshlar o'rtasida 3956 ta jinoyat sodir etilib, o'tgan yilning mos davrida bu ko'rsatkich 6409 tani tashkil qilgan.

Har qanday jinoyatga jazo muqarrardir, har kim qilmishiga yarasha javob oladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida firibgarlik, ya'ni aldash, ishonchini suiiste'mol qilish yo'lli bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Yuqorida keltirib o'tilgan jinoyatlarning ko'pchiligi yoshlarimiz tomonidan amalga oshirilganligi aniqlanmoqda. Bunga sabab nima? Asosiy sabab deb axborotdan noto'g'ri foydalanish, ota-onalarning farzandlarining telefon-kompyuterlariga befarqligi deb bilaman. Kasallikni yenggandan ko'ra, oldini olgan yaxshi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni to'garak yoki qo'shimcha darslar bilan band qilish kerak. Bu masalaning qaysidir ma'noda yechimi desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligidagi 2018-yil 27-iyul kuni Jinoyatchilikni oldini olish, davlat idoralari va jamiatning bu boradagi mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishi.
2. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 9-avgust.
3. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 6-fevral.

